

TABIYIY TOLAGA DASTLABKI ISHLOV BERISH YO'NALISHIDA FOYDALANUVCHI SO'ZLAR

Nurmatov Farhod Choriyevich

Termiz muhandislik-texnologiya instituti assistent o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13132922>

Annotatsiya. Tilshunoslikda erishilayotgan yutuqlar shu darajadagi, u deyarli barcha sohalarga kirib kelib bo'ldi, o'rganila boshlandi, natijada ko'plab ilmiy izlanishlar namunalari yuzaga kelmoqda va tadqiqotlar olib borilmoqda. Ammo kuzatuvimiz natijasida ma'lum bo'ldiki, bugun ushbu maqolada fikr yuritmoqchi bo'lganimiz- tabiiy tolaga dastlabki ishlov berish mavzusida foydalaniladigan so'zlar nisbatan tilshunoslikda yangi, ko'p qo'l urilmagan yo'nalishdir.

Kalit so'zlar: tabiiy tola, to'qimachilik, kanop, metodlar, leksika, mato, ip.

TERMS OF USE IN THE DIRECTION OF PRELIMINARY PROCESSING OF NATURAL FIBER

Abstract. The progress made in linguistics is such that it has penetrated into almost all fields and has begun to be studied, as a result of which many examples of scientific research are being created and research is being conducted. But as a result of our observation, it became clear that the words used in the topic of preliminary processing of natural fibers, which we want to discuss in this article today, are a relatively new, unexplored direction in linguistics.

Key words: natural fiber, textile, hemp, methods, vocabulary, fabric, thread.

УСЛОВИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПО НАПРАВЛЕНИЮ ПРЕДВАРИТЕЛЬНОЙ ОБРАБОТКИ НАТУРАЛЬНОГО ВОЛОКНА

Аннотация. Прогресс языкознания таков, что оно проникло почти во все области и начало изучаться, в результате чего создается и проводится множество примеров научных исследований. Но в результате нашего наблюдения выяснилось, что слова, используемые в теме предварительной обработки натуральных волокон, которую мы хотим обсудить сегодня в этой статье, являются относительно новым, неизведанным направлением в лингвистике.

Ключевые слова: натуральное волокно, текстиль, пенька, методы, словарь, ткань, нить.

Tabiiy tolalarga - tabiatdan hosil bo'lgan, o'simlik, mineral tolalar va jonivorlardan olingan jun tolalari kiradi. Ya'ni, paxta, kanoppoyadan, zig'irdan va boshqa o'simliklardan olinadigan

tolalar, jun tolasi jonivorlardan olinadi. Mineral tolalarga esa asbest kiradi. [1;5] Mamlakatimizda to'qimachilik sanoati ancha rivojlangan bo'lib, deyarli 15 ga yaqin tarmoqlarni o'z ichiga oladi.

Ma'lumotlarga ko'ra, tarixda to'qimachilik materiallari uchun tabiiy toladan ancha avval boshlangan. Aytilishicha, toladan foydalanishning eng qadimgi ko'rsatkichi, ehtimol, Shveysariya ko'l aholisining qazish joylarida (miloddan avvalgi 7-6-asrlar) zig'ir va jun matolarining topilishi bo'lishi mumkin. Bir qancha o'simlik tolalari qadimgi xalqlar tomonidan ham ishlatilgan. Kanop, ehtimol, eng qadimgi o'stiriladigan tolali o'simlik, Janubi-Sharqiy Osiyoda paydo bo'lgan, keyin Xitoyga tarqalgan, u yerda yetishtirish haqida xabarlar miloddan avvalgi 4500 yilga to'g'ri keladi. Misrda zig'ir to'qish va yigirish san'ati miloddan avvalgi 3400-yillarda yaxshi rivojlangan bo'lib, zig'ir o'sha sanadan oldin yetishtirilganligini ko'rsatadi. Hindistonda paxta yigirilishi haqidagi xabarlar miloddan avvalgi 3000-yillarga borib taqaladi. Ipak va ipak buyumlar ishlab chiqarish yuqori darajada rivojlangan Xitoy madaniyatida vujudga kelgan; ipakchilik (ipak qurti yetishtirish) va ipak yigirish usullari ixtirosi va rivojlanishi miloddan avvalgi 2640 yilga to'g'ri keladi. [2;]

Tabiiy tolaga ishlov berish sohasi rivojlanishi uchun ko'plab muammo va to'siqlar mavjud, ammo doimiy ilmiy izlanishlar, yangi formula va usullar orqali turli sohalarda, ayniqsa avtomobilsozlik sohasida yangi rivojlanish yo'llarnini ochish mumkin. [3;25]

Mavzumizga qaytadigan bo'lsak, tabiiy tolaga ishlov berish yo'nalishida faol foydalaniladigan so'zlar talaygina. Ayrim darsliklar glossariy qismida beriladigan so'z va so'z birikmalaridan kelib chiqadigan bo'lsak, birgina *kanop* so'zining o'zi qator holatlarda ishlatilishiga guvoh bo'ldik. *Kanop mahsuloti, kanop tola, kanop tolasi, kanop tolasining sinfi, kanopni qayta ishlash, kanopni qayta ishlash korxonasi, kanop tayyorlash punkti, kanopni qayta ishlash asbob-uskunalari* va boshqa ko'plab misollarni keltirib o'tish mumkin. Bu kabi mavzuga oid so'z va birikmalarning ishlatilishi uni o'rganuvchilar qabul qilishi, fanni o'zlashtirishlarida ijobiy rol o'ynaydi. Bunda ko'rgazmali vositalar yordamida yondashilsa, mavzuning tushunarlik darajasi yanada yuqori bo'lishi kutiladi. Endi tabiiy tolaga ishlov berish fani qaysidir xorijiy til misolida ko'rib chiqiladigan bo'lsa, fanga o'rganuvchini jalb qilish maqsadida turli pedagogik usullardan foydalansh joiz. "Assotsatsiya", "Chaqirilgan mantiq", "Zanjirlar", "Aqliy hujum", "BBB-Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim", "Tushunish bosqichida". "Oddiy va murakkab savollar strategiyasi", "Qaror daraxti", "Klinika metodologiyasi", "Keys stadi" [4;2] va boshqa qator metodlar borki, chet tili, qolaversa mutaxassislik darslarining turli bosqichlarida samarali qo'llanilishi mumkin. Avvalo, darsning dastlabki bosqichlarida foydalanilganda yuqori samara beradigan aqliy hujum metodining amalga oshirilishi haqida fikr yuritsak. Yangi mavzuni

tanishtirishdan oldin talaba ko'z o'ngida u haqida yanada yorqinroq tushuncha hosil qilis maqsadida o'qituvchidan doskaga *mato, trikotaj mahsulotlari, ip, tola, sifat, namlik, mahsulotdan namuna* kabi qator faol qo'llaniluvchi so'zlarni yozib qo'yish talab qilinadi. Undan so'ng, talabalardan ushbu so'zlar zanjiri orqali qaysi mavzuni ochib berishda foydalanilishi mumkin yoki qaysi mavzu bu so'zlarga bog'lanilishi mumkin? Bunda so'zlar o'rnida suratlar ham, yoki har ikki variantlar ham ishlatilishi mumkin. Shu bilan birga to'qimachilik yoki tabiiy tola tushunchasi borasidagi talabalar qarashlari, o'z ta'riflari ham berib o'tilishi maqsadga muvofiqdir. Ushbu birgina metod va tabiiy tola, to'qimachilik sohasida faol ishlatiladigan leksikadan foydalanish orqali talabalarda bir paytning o'zida tanqidiy fikrlash qobiliyatini ham sayqallab borish mumkin. Ushbu leksika xotirada mustahkamroq qolishi uchun mavzuga oid, yuqoridagi va ularga yaqin boshqa so'zlardan tashkil topgan matn o'qib-o'rganilishi, tahlil qilinishi samaradorlik darajasini yanada oshiradi.

Til bilan bog'liq darslarda lug'atlarni eslab qolishning yana ko'plab yo'llari ham bor bo'lib, aynan tabiiy tola va unga dastlabki ishlov berish kabi mavzularga oid bo'lganini aytib o'tamiz Assotsiatsiya metodi, ya'ni bir tushunchani boshqa tushunchaga, yoki uning izohiga qo'shish birlashtirish usuli orqali bunga erishish mumkin. Bunda *tabiiy tola* termini xoh og'zaki yoki yozma tarzda taqdim qilinadi va talaba bilimidan kelib chiqib, bu so'zga ekvivalent, izoh, sinonim yoki u bilan bog'liq vaziyat keltiradi. Taxminiy javoblar quidagicha bo'lishi mumkin: *tabiiy tola- ip, paxta, xomashyo, mato* va boshqalar. Shu yo'sinda tabiiy tolaga dastlabki ishlov yo'nalishida o'tilishi, foydalanishi mumkin bo'lgan so'zlar mustahkamlanishi mumkin.

Xulosa qiladigan bo'lsak, ushbu yo'nalishda amalga oshirilgan ilmiy manbalar hali u qadar ko'p emas va bu yo'nalish ko'proq tadqiq etilishni talab qiladi. Tilshunoslik sohasida hali ochib berilmagan kata mavzu bo'lishi mumkin.

REFERENCES

1. Usmankulov A, Salimov A, Abbazov I. "Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash": O'quv qo'llanma- T.: LESSON PRESS nashriyoti, 2020-y.- 162b.
2. <https://www.britannica.com/topic/natural-fiber>
3. Issam Elfaleh va b. A comprehensive review of natural fibers and their composites: An eco-friendly alternative to conventional materials, Results in Engineering Volume 19, September 2023, 101271
4. D.M.Yuldasheva "The Ways of Formation the Discourse Competence on Students of Textile Spheres and Development in Critical Thinking at the Professional Foreign

Language Lessons”, International Journal of Linguistics, Literature and Translation (IJLLT) ISSN: 2617-0299 www.ijllt.org, 2019. 2b.